

**“T A S D I Q L A Y M A N”**  
**O’zbekiston Respublikasi Ichki  
ishlar vazirligi huzuridagi  
Jamoatchilik kengashi raisi**  
**Yo.X.Sa’diev**

2023 yil “ ” yanvar

**O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 4 martdagи PF-6181-son va 16 iyundagi PF-6247-son Farmonlari  
talablaridan kelib chiqqan holda, Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik Kengashi tomonidan I yarim yillik  
davomida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar**

**D A S T U R I**

TG’R	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Bajarish muddati	Bajarish uchun mas’ullar
1.	Jamoatchilik kengashining 2022 yil 2-yarim yillikdagi faoliyat yakunlari yuzasidan, shuningdek kelgusidagi dolzARB masalalar bo'yicha vazifalarni belgilashga qaratilgan muhokama yig'ilishini tashkillashtirish	yanvar oyida	IIV-IIBB-IIIB, IIV Axborot xizmati, IIV MMVaKTD
2.	14 yanvar “Vatan himoyachilari kuni”, 8 mart “Xalqaro xotin-qizlar kuni” hamda, 21 mart “Navro’z umumxalq bayrami” kunlari munosabati bilan, jamoatchilik vakillari ishtirokida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarini tashkil etish va yuqori saviyada o’tkazish, shuningdek respublika OAVlari orqali keng yoritish	yanvar, mart oylari davomida	IIV-IIBB-IIIB, IIV Axborot xizmati, IIV MMVaKTD
3.	2021 yil 4 martdagи “2021 – 2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-6181-son, 16 iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, Jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PF-6247-son Farmon hamda 2018 yil 4 iyuldagи “Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3837-son qarorda belgilangan vazifalar doirasida, IIV tizimi faoliyatiga taalluqli matbuot anjumani, seminar va brifinglar tashkillashtirib borish	Doimiy ravishda	IIV-IIBB-IIIB, IIV Axborot xizmati, IIV MMVaKTD

TG' R	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Bajarish muddati	Bajarish uchun mas'ullar
4.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi hamda 2023 yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lif yili" deb e'lon qilinishi doirasida belgilangan vazifalarning ijrosi borasidagi amaliy ishlar yuzasidan jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish	Doimiy ravishda	IIV-IIBB-IIIB, IIV Axborot xizmati, IIV MMVaKTD
5.	Jamoatchilik kengashi a'zolari tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek, dasturlarida jamoatchilik manfaatlari va jamoatchilik fikri hisobga olinishi, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasida qonun hujjatlari talablari ijrosini ta'minlash, ichki ishlar organlari zimmasiga yuklangan hamda ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxl qiluvchi vazifalar va funktsiyalarni bajarish, davlat xizmatlarini ko'rsatish, shartnomalar, loyihibar va dasturlarni ro'yobga chiqarish bo'yicha ichki ishlar organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish.	Doimiy ravishda	IIV-IIBB-IIIB, IIV Axborot xizmati IIV Tashkiliy departamenti, IIV MvaMTTD, IIV MMVaKTD
6.	IIV Jamoat xavfsizligi masalalari bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi tomonidan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qiluvchi eng muhim masalalar yuzasidan ichki ishlar organlari faoliyatiga bog'liq masalalarda o'tkazilgan tadqiqot va sotsiologik so'rovlar o'tkazilishida hamkorlik qilish	Doimiy ravishda	IIV-IIBB-IIIB, IIV Jamoat xavfsizligi masalalari bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi, IIV Axborot xizmati, IIV MMVaKTD
7.	Ichki ishlar organlarida tarbiyaviy ishlar samaradorligini hamda shaxsiy tarkibning ma'naviy-ma'rifiy bilimlarini oshirish maqsadida, ichki ishlar organlari Faxriylar kengashlari, Ma'naviy-ma'rifiy ishlar xizmati va uning hududiy tuzilmalari, shuningdek, jamoat tashkilotlari, teatrlar, axborot-kutubxona markazlari, ta'lif muassasalari va boshqalar ishtirokida ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi tadbirlarni o'tkazib borish.	Doimiy ravishda	IIV-IIBB-IIIB, IIV MMVaKTD IIV Axborot xizmati
8.	Huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish va unga keng jamoatchilikni jalb etishni tashkillashtirishda Ichki ishlar organlari huzuridagi Jamoatchilik kengashlari va Faxriylar kengashlari hamkorligini ta'minlash	Doimiy ravishda	IIV-IIBB-IIIB, IIV HPX, Axborot xizmati, MMVaKTD, Faxriylar kengashi

TG'R	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Bajarish muddati	Bajarish uchun mas'ullar
9.	O'zbekiston Respublikasi IIV hamda manfaatdor tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda korruptsiya illatiga qarshi kurashish yo'nalishida amalga oshirilayotgan ishlarga oid media mahsulotlarni tayyorlash hamda keng jamoatchilik e'tiboriga muntazam ravishda havola etib borish	Doimiy ravishda	IIV Axborot xizmati, IIV MMVaKTD
10.	IIV tizimi yosh xodimlarini xizmat burchiga hamda Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash borasida, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ittifoqining ichki ishlari organlaridagi boshlang'ich tashkilotlari bilan hamkorlik qilish	Doimiy ravishda	IIV-IIIB-IIIB, IIV Yoshlar ittifoqi etakchilar kengashi, IIV Axborot xizmati
11.	"Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, sport tadbirlari, faxriylar va yoshlar uchrashuvlarini muntazam tashkil etib borish.	Doimiy ravishda	IIV-IIIB-IIIB, IIV MMVaKTD, IIV Faxriylar kengashi IIV Axborot xizmati
12.	Ichki ishlari organlari xodimlarining xizmat intizomi va qonunchilikka rivoja qilishlari ahvolini muntazam o'r ganib borish va uni mustahkamlashga qaratilgan manzilli va maqsadli chora-tadbirlar muhokamasini o'tkazib borish	Har chorak davomida	IIV-IIIB-IIIB, IIV MMVaKTD, IIV Axborot xizmati
13.	Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilib, ichki ishlari organlari tizimi obro'siga putur etkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar yuzasidan uzlusiz monitoring olib borish, hamda ushbu kabi materiallarga nisbatan o'z muddatida rasmiy munosabatlар berilishini tashkillashtirish. Zaruriy hollarda umumiy tizim faoliyatining rivojlanishiga oid takliflar tayyorlash rahbariyatga kiritish	Doimiy ravishda	IIV-IIIB-IIIB, IIV Axborot xizmati, IIV MMVaKTD
14.	Davlat bayramlari va kasb kunlari nishonlanishi munosabati bilan, ichki ishlari organlari xodimlari, nafaqadagi xodim va harbiy xizmatchilar holidan xabar olish.	Doimiy ravishda	IIV-IIIB-IIIB, IIV MMVaKTD IIV Axborot xizmati
15.	IIO xodimlarining ijtimoiy himoyasi jumladan, uy-joy bilan ta'minlash, qurish yoki ta'mirlash uchun foizsiz qarz berish, avtokredit berilishi, sanatoriy va kurortlarda dam olish xarajatlarini qoplanishi, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga xodimlar farzandlarini joylanishi, to'y va dafn marosimlari uchun moddiy yordam berish va boshqalar yuzasidan jamoatchilikka hisobot berishini tashkil etish	Har yarim yillikda	IIV-IIIB-IIIB, IIV MMVaKTD, IIV MvaMTTD, Tibbiyot boshqarmasi, IIV Axborot xizmati

TG' R	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Bajarish muddati	Bajarish uchun mas'ullar
16.	Kasaba uyushmasi tomonidan xodimlarning ijtimoiy himoyasi borasidagi amaliy faoliyati to'g'risida Jamoatchilik kengashi oldida hisobot berish	Har yarim yillikda	IIV MMvaKTD, Kasaba uyushmasi
17.	Ichki ishlar organlarining faoliyatidan keng jamoatchilikni xabardor qilish maqsadida "Postda" – "Na postu" gazetalari, "Qalqon" – Hit jurnallari hamda markaziy va mahalliy nashrlar bilan hamkorlikda maqola va ocherklar berib borish.	Doimiy ravishda	Birlashgan tahririyat, IIV MMvaKTD, IIV Axborot xizmati
18.	IIVning ta'lif muassasalarida uzoq yillar ichki ishlar organlarida namunali xizmat qilgan, yuksak obro'-e'tiborga ega bo'lgan faxriylar ishtirokida avlodlar uchrashuvlarini tashkil etib borish.	Har chorakda	IIV MMvaKTD, IIV Faxriylar kengashi IIV Axborot xizmati
19.	IIV Akademiyasi tinglovchilari ma'naviy bilimlarini yuksaltirish maqsadida taniqli ma'naviyat targ'ibotchilari, olim va shoirlar, san'at arboblari ishtirokida badiiy kechalar, uchrashuvlar, viktorina va ko'rik-tanlovlar tashkil etish.	Doimiy ravishda	IIV Akademiyasi, IIV MMvaKTD, IIV Axborot xizmati

Dastur tuzdi:

**Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari  
bilan aloqalar boshqarmasi boshlig'i  
polkovnik**

**Sh.K. Giyasov**

**" K E L I Sh I L G A N "**

**IIV Faxriylar kengashi raisi,  
iste'fodagi general-mayor**

**E.N. Norgitov**

**IIV Ma'naviy-ma'rifiy ishlar  
xizmati boshlig'i, polkovnik**

**X.V. Maxsumov**